ETYUDLAR USTIDA ISHLASH JARAYONI: AKTYORLIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY ASOSLARI

Rasulov Umid O‘rolboyevich – *dotsent v.b*
umidrasulov469@gmail.com
O‘zDSMI, “Musiqali teatr san’ati”kafedrasi

ПРОЦЕСС РАБОТЫ НАД ЭТЮДАМИ: ПРАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ АКТЁРСКОГО МАСТЕРСТВА

Расулов Умид Уролбоевич – *и.о. доцента*
кафедры "Искусство музыкального театра", ГИИКУз

THE PROCESS OF WORKING ON ETUDES: PRACTICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING ACTING SKILLS

Rasulov Umid Urolboyevich – *Acting Associate Professor*
Department of "Musical Theater Arts", UzSIAC

Tayanch so‘zlar: aktyorlik mahorati, etyud, sahnaviy haqiqat, psixofizik harakat, diqqat, faktni baholash, ichki jarayon, sahnaviy maqsad, partnyor, yakka etyud, juftlik etyudi, musiqiy etyud, sahnaviy fikrlash.

Rezyume. Maqolada musiqali teatr san’ati ta’limida aktyorlik mahoratini shakllantirishning amaliy asosi sifatida etyudlar ustida ishlash jarayoni tahlil qilinadi. Aktyorning tashqi xatti-harakatlari va ichki ruhiy-psixofizik jarayonlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etiladi. Tadqiqotda yakka, juftlik va musiqiy etyudlar ustida ishlash bosqichlari, faktni qabul qilish va baholash jarayoni, so‘zning ichki ehtiyojdan tug‘ilishi hamda talabalarda uchraydigan umumiy sahnaviy muammolarni bartaraf etish usullari yoritib berilgan.

Ключевые слова: актёрское мастерство, этюд, сценическая правда, психофизическое действие, внимание, оценка факта, внутренний процесс, сценическая задача, партнёр, одиночный этюд, парный этюд, музыкальный этюд, сценическое мышление.

Резюме. В статье анализируется процесс работы над этюдами как практическая основа формирования актёрского мастерства в обучении искусству музыкального театра. Рассматривается неразрывная связь между внешними действиями актёра и его внутренними психофизическими процессами. В исследовании раскрываются особенности этапов работы над одиночными, парными и музыкальными этюдами, процесса восприятия и оценки фактов, рождения слова из внутренней необходимости, а также методы устранения распространенных сценических проблем у студентов.

Keywords: acting skills, etude, stage truth, psychophysical action, attention, evaluation of the fact, internal process, stage objective, partner, solo etude, pair etude, musical etude, stage thinking.

Summary. The article analyzes the process of working on etudes as a practical foundation for developing acting skills in musical theater education. The intrinsic connection between an actor's external actions and internal psychophysical processes is examined from a pedagogical perspective. The study explores the specifics of stage-by-stage work on solo, pair, and musical etudes, the process of perceiving and evaluating facts, the emergence of speech from internal necessity, as well as pedagogical methods for overcoming common performance issues among students.

Aktyorlik san’ati insonning tashqi xatti-harakatlari bilan ichki ruhiy-psixofizik jarayonlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikka asoslanadi. Sahnada aktyor tomonidan bajarilayotgan har bir harakat, aytilgan har bir so‘z, berilgan har bir reaksiya muayyan ichki ehtiyoj, maqsad va munosabat bilan bog‘langandagina ishonarli va hayotiy ko‘rinish kasb etadi. Shuning uchun aktyorlik mahoratini o‘qitish jarayonida talabaga faqat nazariy bilim berishning o‘zi yetarli emas. U nazariy tushunchalarni amaliyotda sinab ko‘rishi, ularni o‘z tanasi, diqqati, tasavvuri va hissiy tajribasi orqali anglashi kerak. Aktyorlik ta’limida etyud ana shu nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmaga aylantiruvchi eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Etyud kichik sahnaviy vaziyat bo‘lishiga qaramay, uning tarkibida aktyorlik san’atining deyarli barcha muhim elementlari mujassamlashadi. Talaba berilgan sharoitni qabul qiladi, unga munosabat bildiradi, maqsad belgilaydi, harakat qiladi, to‘siqqa duch keladi, partnyor yoki muhit ta’sirida o‘z holatini o‘zgartiradi va natijada sahnaviy voqea yuzaga keladi. Etyudlar bilan ishlashning muhim jihati shundaki, talaba sahnaviy jarayonni tayyor natija sifatida emas, balki jarayon sifatida

oʻzlashtiradi. U sahnada nima boʻlishini oldindan “ijro etish”ga emas, balki vaziyatni qabul qilish va shu vaziyatda yashashga oʻrganadi. Bu esa aktyorlik ta’limidagi eng muhim vazifalardan biridir. Tajriba shuni koʻrsatadiki, talabani darhol murakkab dramatik vaziyatga olib kirish ba’zan kutilgan natijani bermaydi. Chunki talaba sahnaviy tajribasi yetarli boʻlmagani sababli tashqi koʻrinish, ovoz, harakat va tayyor emotsiyalarga tayanib qolishi mumkin. Masalan, qoʻrquvli holat berilsa, u qoʻrqqan insonni tasvirlaydi; qaygʻuli vaziyatda esa qaygʻuni koʻrsatishga harakat qiladi. Bunda voqeaning ichki sababi emas, uning tashqi belgisi birinchi oʻringa chiqadi. Shu nuqtai nazardan etyudlar ustida ishlashda bosqichma-bosqichlik tamoyili muhim ahamiyatga ega. Dastlab oddiy faktni qabul qilish va baholash, keyin yakka harakat, undan soʻng partnyor bilan munosabat va murakkabroq sahnaviy vazifalarga oʻtish talabaning tabiiy ijodiy jarayonini shakllantirishga yordam beradi.

Etyud aktyorlik pedagogikasida nafaqat amaliy mashq, balki talabaning ijodiy tabiatini oʻrganish va shakllantirish vositasi hamdir. Pedagog etyud jarayonida talabaning sahnada oʻzini qanday tutishini, diqqatini qayerga qaratayotganini, vaziyatni qanday qabul qilayotganini va partnyor ta’siriga qanday javob berayotganini kuzatish imkoniyatiga ega boʻladi.

Talaba esa oʻz navbatida sahnadagi xatti-harakatlarining ichki sabablarini anglay boshlaydi. Masalan, “men qoʻlimni nima uchun bu tarzda harakatlantirdim?”, “nega men orqaga chekindim?”, “nima sababdan ovozim oʻzgardi?” kabi savollar uning sahnaviy fikrlashini chuqurlashtiradi. Aktyor uchun harakatning oʻzi emas, harakatning ichki sababi muhim ekani shu jarayonda asta-sekin anglanadi.

Etyudlar talabaning diqqatini ham tarbiyalaydi. Sahnada diqqatni bir nuqtada ushlab turishdan koʻra, uni tirik jarayon ichida harakatlantirish muhim. Talaba predmetni koʻradi, uning xususiyatini payqaydi, tovushni eshitadi, partnyorning reaksiyasini qabul qiladi va shu asosda oʻz harakatini oʻzgartiradi. Demak, sahnaviy diqqat faqat diqqatni jamlash emas, balki tashqi muhit bilan doimiy munosabatga kirishish qobiliyatidir. Bundan tashqari, etyud talabada sahnaviy erkinlikni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Talaba sahnada xatodan qoʻrqmasligi, kutilmagan vaziyatga javob bera olishi va oldindan tayyorlanmagan holatda ham oʻzini yoʻqotmasligi kerak. Bu qobiliyatni esa faqat nazariy tushuntirish orqali emas, muntazam amaliy mashgʻulotlar orqali shakllantirish mumkin.

Mashgʻulotlar jarayonida etyudlar bilan ishlashni bir necha oʻzaro bogʻliq bosqichlarga ajratish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqichda talabaning faktni qabul qilishi va baholashi ustida ishlanadi. Keyin yakka etyudlar orqali uning ichki diqqati va muhit bilan munosabati rivojlantiriladi. Keyingi bosqichda soʻzning ichki ehtiyojdan tugʻilishiga e’tibor qaratiladi. Shundan soʻng juftlik etyudlari orqali partnyor bilan munosabat, musiqiy etyudlar orqali esa ritm va ichki impuls ustida ish olib boriladi.

Bunday ketma-ketlik talabani tashqi harakatdan ichki jarayonga olib borish imkonini beradi. Har bir bosqich keyingi bosqich uchun asos vazifasini bajaradi.

Agar talaba faktni toʻgʻri qabul qilishni oʻrganmagan boʻlsa, uning partnyor bilan munosabati ham koʻpincha tashqi koʻrinishga aylanib qoladi. Agar u maqsadli harakat qilishni oʻzlashtirmagan boʻlsa, juftlik etyudida harakatlar tasodifiy boʻlib qolishi mumkin. Shuning uchun etyudlar ustida ishlashda tizimlilik va bosqichma-bosqichlik asosiy pedagogik tamoyillardan biri sifatida qaralishi lozim.

Aktyor sahnada haqiqiy yashashi uchun u tayyor emotsiyani namoyish qilmasligi kerak. Sahnaviy haqiqat tashqi koʻrinishdan emas, insonning ichki psixofizik jarayonidan tugʻiladi. Shu sababli mashgʻulotlarda faktni qabul qilish, uni anglash, baholash va shu baholashdan harakat tugʻdirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

Faktni baholash mashqlarining asosiy maqsadi talabani sun’iy oʻyindan olib chiqib, tirik qabul qilish jarayoniga yaqinlashtirishdan iborat boʻldi. Talabalarda eng koʻp uchraydigan muammolardan biri voqeani yashamasdan, uning natijasini oʻynashga oʻtib ketish ekani kuzatildi. Masalan, gaz hidini sezishi bilan darhol vahimaga tushish, suv toshganini koʻrishi bilan baqirish, kutilmagan inson kelganini bilishi bilan ortiqcha hayajon namoyish qilish kabi holatlar bunga misol boʻla oladi. Shuning uchun mashgʻulotlarda talabaga tayyor emotsiya berilmadi. Unga faqat fakt taklif qilindi. Qolgan jarayon — qabul qilish, anglash, baholash va harakatga kelish — talabaning oʻzi tomonidan amalga oshirilishiga sharoit yaratildi. Bu jarayonni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Muhitga kirish.
2. Nimanidir payqash yoki sezish.
3. Faktni aniqlashga urinish.
4. Uni baholash.
5. Baholashdan harakat tugʻilishi.

6. Harakat natijasini kuzatish va yangi sharoitga moslashish.

Oxirgi bosqich ham muhim. Chunki sahnada harakat bir marta paydo bo‘lib, to‘xtab qolmaydi. Har bir harakat yangi faktni keltirib chiqaradi va bu yangi fakt yana baholashni talab qiladi. Shu tariqa sahnaviy hayot uzluksiz jarayonga aylanadi.

Yakka etyudlar talabaning mustaqil sahnaviy hayotini shakllantirishda muhim bosqichlardan biridir. Bunday etyudlarda talaba sahnada sheriksiz qoladi va shu sababli uning ichki diqqati, tasavvuri, muhit bilan munosabati, fikrlash jarayoni va psixofizik mantig‘i yaqqol namoyon bo‘ladi.

Juftlik etyudida partnyorning reaksiyasi aktyor uchun doimiy tashqi ta’sir vazifasini bajaradi. Yakka etyudda esa talaba o‘z diqqatini mustaqil ravishda ushlab turishi kerak. Shuning uchun bu mashqlar uning sahnaviy barqarorligini shakllantiradi. Yakka etyudning asosiy muammolaridan biri — sahnani tashqi harakat bilan to‘ldirishga bo‘lgan moyillikdir. Talaba yolg‘iz qolishi bilan qo‘llarini ko‘p harakatlantirishi, sahna bo‘ylab yurishi yoki tayyor emotsiyani namoyish qilishi mumkin. Bunday vaziyatda harakatni ko‘paytirish emas, uning ichki sababini topish muhim. Har bir harakat “Nima uchun?” degan savolga javob berishi kerak. Masalan, talaba xonada kimnidir kutyapti. Uning yurishi, soatga qarashi, eshik tomonga qarashi, o‘tirishi va yana turishi faqat tashqi harakatlar bo‘lib qolmasligi kerak. Bu harakatlarning har biri kutish maqsadi va vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib borayotgan munosabatdan tug‘ilishi lozim.

Yakka etyudlarda muhit bilan munosabat ham katta ahamiyatga ega. Sahnada inson yolg‘iz bo‘lsa-da, u muhitdan ajralgan holda mavjud bo‘lolmaydi. Predmetlar, tovushlar, yorug‘lik, masofa, harorat, sukut va tasavvur qilingan voqealar aktyorning sahnaviy hayotiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun talabaga “saxnada yolg‘iz qoldim” degan hisni emas, “men muayyan sharoitda yashayapman” degan hisni shakllantirish muhim. Etyudlar bilan ishlashning keyingi muhim bosqichlaridan biri — so‘zning paydo bo‘lish jarayonidir. Sahnada aytilgan har bir so‘z muayyan ichki zaruratdan tug‘ilsa, u tirik va ta’sirchan eshitiladi. Aks holda matn faqat yodlangan jumlalar ketma-ketligiga aylanib qolishi mumkin. Shu sababli mashg‘ulotlarda talabani avval voqeani yashashga, munosabatni his qilishga va maqsadni aniqlashga, shundan keyin so‘zga o‘tishga yo‘naltirish muhim. Masalan, talaba partnyorga “Sen qayerda eding?” degan savolni aytishi kerak bo‘lsa, bu jumlani shunchaki talaffuz qilish yetarli emas. Uning ortida kutish, xavotir, ishonchsizlik, g‘azab yoki sog‘inch bo‘lishi mumkin. So‘zning qanday aytilgani uning ichki sababiga bog‘liq bo‘ladi. Shu tariqa talabaga so‘zning tashqi shaklini emas, uning ichki ehtiyojini izlash o‘rgatiladi.

Juftlik etyudlarida asosiy e’tibor partnyorni haqiqatan ko‘rish, eshitish va qabul qilishga qaratiladi. Aktyor sahnada faqat o‘z vazifasini bajarib qolmasligi, balki partnyorning har bir reaksiyasiga javob bera olishi kerak. Talabalarda ba’zan partnyorning gapini eshitish o‘rniga o‘z navbatini kutish holati kuzatiladi. Bu holatda sahnada haqiqiy munosabat emas, oldindan tayyorlangan dialog yuzaga keladi. Shuning uchun juftlik etyudlarida “partnyorni kutish” emas, “partnyorni qabul qilish” tamoyili muhim. Agar partnyorning bir so‘zi, qarashi yoki harakati aktyorning ichki holatiga ta’sir qilsa, aktyorning keyingi harakati ham o‘zgarishi kerak. Haqiqiy sahnaviy dramatizm ko‘pincha aktyorning o‘z ichki kechinmasini namoyish etishidan emas, balki uning ikkinchi inson bilan bo‘lgan tirik munosabatidan tug‘iladi.

Musiqiy etyudlar talabaning harakat va ichki impuls o‘rtasidagi munosabatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Bunda musiqa oddiy tashqi fon sifatida emas, harakatning ichki manbalaridan biri sifatida qabul qilinadi. Musiqa ta’sirida talaba ritmni his qiladi, harakat tezligi va xarakterini o‘zgartiradi, ichki holatni jismoniy harakat orqali ifodalashga o‘rganadi. Biroq musiqiy etyudda ham tashqi harakatga berilib ketish xavfi mavjud. Talaba musiqaning ritmiga mexanik ravishda harakat qilishi mumkin. Shuning uchun unga musiqani “eshitish” bilan birga, uning o‘z ichki holatida qanday o‘zgarish hosil qilayotganini his qilish vazifasi qo‘yiladi. Bunday mashqlar jismoniy erkinlik, impulsni qabul qilish, harakatda fikrlash va ichki holatni harakat bilan bog‘lash qobiliyatini rivojlantiradi.

Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida talabalar bilan ishlashda bir qator umumiy muammolar kuzatiladi. Ulardan eng asosiysi — tayyor emotsiyani namoyish qilishga intilishdir. Talaba ko‘pincha sahnada qanday ko‘rinishi haqida o‘ylaydi. Bu esa uning diqqatini vaziyatdan uzoqlashtiradi.

Ikkinchi muammo — harakatni ortiqcha ko‘paytirish. Talaba sahnada “bo‘sh qolib ketishdan” qo‘rqib, keraksiz yurishlar, qo‘l harakatlari va tashqi reaksiyalarni qo‘shib yuboradi. Uchinchi muammo — partnyorni eshitmaslik. Bunda aktyor partnyorning gapini

qabul qilish o‘rniga oldindan tayyorlangan reaksiyani amalga oshiradi.

To‘rtinchi muammo — natijaga shoshilish. Talaba vaziyat hali rivojlanib ulgurmasdan, uning oxirgi natijasini ijro etishga harakat qiladi.

Bu muammolarning barchasi bir-biri bilan bog‘liq. Ularning asosida sahnada “yashash” o‘rniga “ko‘rsatish”ga intilish yotadi. Pedagogik jarayonda ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun etyudni to‘xtatib, uni mayda qismlarga ajratish, talabaga aniq savollar berish, faktni qayta qabul qildirish va harakatning ichki sababini topishga yo‘naltirish samarali natija beradi.

Aktyor uchun sahnaviy erkinlik faqat jismoniy erkinlik emas. U fikr, diqqat, tasavvur va hissiyotning bir-biri bilan uyg‘un harakat qila olish qobiliyatidir. Etyudlar jarayonida talaba xatodan qo‘rqmaslikni, kutilmagan vaziyatda yo‘qolib qolmaslikni va partnyorning ta’siriga javob berishni o‘rganadi. Bu jarayonda pedagog talabaga tayyor yechim berishdan ko‘ra, uni mustaqil izlanishga undashi muhim. Talaba har bir etyudda bir xil natijaga emas, yangi tajribaga erishishi kerak. Chunki aktyorlik san’atida mexanik takror emas, tirik jarayon muhim.

Etyudlar muntazam takrorlanib, har safar yangi sharoit va vazifalar bilan boyitilganida talabaning sahnaviy sezgirligi ham rivojlanadi. U faktni tezroq qabul qiladi, vaziyatni aniqroq baholaydi, partnyorni yaxshiroq eshitadi va harakatini tabiiyroq tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda etyudlar ustida ishlash aktyorlik mahoratini o‘qitish jarayonining eng muhim amaliy bosqichlaridan biri hisoblanadi. U talaba uchun sahnaviy haqiqat, diqqat, munosabat, maqsad, baholash, psixofizik harakat va ichki jarayon kabi muhim tushunchalarni amaliy ravishda o‘zlashtirish imkonini beradi. Etyudlar bilan ishlashning eng muhim natijasi shundaki, talaba sahnada o‘zini ko‘rsatishga emas, berilgan sharoitda yashashga o‘rganadi. Uning harakati tashqi shakl uchun emas, aniq maqsad va munosabat uchun xizmat qila boshlaydi. Bu esa aktyorlik mahoratining eng muhim belgilaridan biridir.

Shu ma’noda etyudni oddiy sahnaviy mashq sifatida emas, balki aktyorning ijodiy tabiati, sahnaviy fikrlashi va psixofizik erkinligini shakllantiruvchi o‘ziga xos ijodiy laboratoriya sifatida baholash mumkin. To‘g‘ri tashkil etilgan etyud mashg‘ulotlari talabani tayyor natijani namoyish etishdan voz kechib, sahnadagi har bir lahzani qabul qilish, baholash va unga jonli munosabat bildirishga olib keladi. Aynan shu jarayon aktyorlik mahoratining amaliy poydevorini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yarbekov, E. (2024). Sahna nazariyasi. *Oriental Art and Culture*, *5*(5), 584-590.
2. Usnatov, R. J. (2025). Musiqali dramaning ayrim muammolari. *Inter education & global study*, (1), 518-522.
3. Xushvaqtov, E. (2023). To‘ti Yusupova ijodida milliy qahramonlik timsoli. *Interpretation and researches*, *1*(15).
4. Xusanov, B. (2023). Musiqali teatr aktyorlarini tarbiyalashda adabiy parchalarning ahamiyati. *Interpretation and researches*, *1*(15).
5. Farmonov, F. (2021). Modern types of pedagogy. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(12), 33-34.
6. Qudratov, O. (2023). Ta’lim va teatr. Interpretation and researches, 1(15).
7. X.Yusupova. “Yo‘llaringni hiloli bo‘lay”.“Sharq”nashriyot matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi-2001. 3-bet.